



O‘ZBEKISTONDA «YASHIL IQTISODIYOT»NI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH YO‘LLARI

Tursunov Ozodbek Badalovich

Farg‘ona davlat universiteti

Aniq va tabiiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Annotasiya: Milliy ishlab chiqarish va eksport tarkibida chuqur qayta ishlangan, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashning muhim omili bo‘lib hisoblanishini bugungi kunda hech kimga sir emas. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish nafaqat ichki, balki global jarayonlar va muammolarni hisobga olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan barqaror iqtisodiy rivojlanishning yangi, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish izchil tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va barqaror taraqqiyotning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, «sof texnologiyalar»ga nisbatan innovatsion yondashish, «Yashil iqtisodiyot»ni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, urbanizatsiya, yashil” iqtisodiyot, Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi.

Abstract: Today, it is no secret that the development of the economy aimed at increasing the share of highly processed, high-added-value finished products in the structure of national production and export is considered an important factor for ensuring long-term sustainable economic growth. The development of a long-term strategy of structural changes in the economy of Uzbekistan requires taking into account not only domestic, but also global



processes and problems. From this point of view, the transition of sustainable economic development to a new, innovative economy based on efficient use of resources is one of the most effective means of implementing consistent structural changes and sustainable development. The problems of ensuring sustainable economic growth, innovative approach to "clean technologies", formation of "green economy" are regularly discussed in international economic, ecological and investment forums.

Key words: Innovatsiya, urbanization, "green" economy, National taxonomy of "green" economy.

Aholining o'sishi, tez urbanizatsiya va iqtisodiy transformatsiyalar atrof-muhitga sezilarli bosim o'tkazishga olib keladi. Ushbu vaziyat iqlim o'zgarishi, energiya va suvga bo'lgan talabning ortishi va tabiiy resurslarning kamayishi bilan og'irlashmoqda. Shuning uchun O'zbekistonning iqlim bo'yicha, milliy siyosat ustuvorliklarini amalga oshirish hamda resurslar samaradorligiga e'tibor qaratgan holda muvofiqlashtirilgan va izchil harakatlar orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash siyosatini, amalga oshirish va boshqarish salohiyatini kuchaytirishdan iborat.

2030-yilgacha O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasiga muvofiq bu turdagi faoliyatni tasniflash uchun mazkur taksonomiyani ishlab chiqish belgilangan.

"Yashil" loyihalar taksonomiyasi — barqaror rivojlanishga ko'maklashadigan va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni oshirishga, atrof-muhitga salbiy ta'sir darajasini pasaytirishga va energiya tejamkorligini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyat turlari, loyihalar va aktivlarni [tasniflash tizimi](#).

2024-yilning 1-oktabrigacha "yashil" obligatsiyalar va kreditlar hamda boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan "yashil" turdagi loyihalarni tasniflash tajriba tarzida Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasi orqali amalga oshiriladi.



Shuningdek, davlat moliyaviy ko‘magidan foydalangan barcha tadbirkorlar, jumladan, xususiy va davlat ishtirokidagi xo‘jalik birlashmalarining investitsiyaviy xarajatlari mazkur taksonomiya asosida tasniflanadi.

Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi quyidagi 7ta toifaga bo‘lingan:

- suv va xom-ashyolardan foydalanish samaradorligi;
- havo va tuproq sifatini yaxshilash;
- barqaror qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, ekoturizm;
- yashil transport;
- energiya samaradorligini oshirish;
- qayta tiklanuvchi energiya;
- yashil binolar.

Joriy yilning 3-dekabr kuni Dubay shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi 28-sessiyasi (COP28) doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi delegatsiyasi Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) Markaziy Osiyo mintaqaviy dasturlar klasteri koordinatori Torsten Brezina bilan uchrashuv o‘tkazdi. Mamlakatimizda "yashil" sanoatlashtirishni rivojlantirish uchun Germaniyaning 9 mln yevro grand mablag'larini jalb qilish bo'yicha kelishuv imzolandi. Ushbu loyiha Iqtisodiyot va moliya vazirligiga iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, "yashil" sanoatlashtirish va "yashil" iqtisodiyot bo'yicha davlat va xususiy sektor salohiyatini kuchaytirish imkonini beradi.

«Yashil iqtisodiyot»ga o‘tish, aksincha, kelajak avlodlarni ekologik xavfxatarlarga yoki ekologik tanqislikka duchor qilmasdan, aholi farovonligi va hayot sifatini yaxshilashni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mutaxassislar «Yashil» relslarga o‘tishning beshta asosiy yo‘nalishini belgilab olishadi:

1. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy qilish.
2. Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida «Yashillashtirish».
3. «Toza» transportni rivojlantirish.



4. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish.

5. Yer va suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish.

Mutaxassislar ushbu sohalarning har birida «Yashil iqtisodiyot»ga o'tish orqali jami qo'shimcha yillik foydalarni hisoblashdi. Misol uchun, qayta tiklanuvchi energiya manbai sektorida kutilayotgan foyda 5 milliard dollardan oshadi. Shu bilan birga, «Yashillashtirish» siyosati qo'shimcha «Yashil» ish bilan ta'minlashga olib keladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, faqat qayta tiklanuvchi energiya sektorida 2020-yilgacha 175 mingta qo'shimcha ish o'rinlari va 2050- yilgacha 270 mingga yaqin ish o'rinlari tashkil etilishi mumkin.

Fikrimcha, O'zbekistonni «Yashil iqtisodiyot» tizimiga o'tkazish avvalo ushbu tizimga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etgan holda turli sohalarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va aholini muntazam ravishda «Yashil iqtisodiyot» konsepsiyasi bilan tanishtirib borish, ta'lim tizimiga yangi fan va o'quv dasturlarini kiritish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Tursunov, O. B. (2023). O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATLARI FAOLIYATI TAHLILI VA XIZMATLAR BOZORIDAGI TENDENSIYALAR O'ZGARISHI. *SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY*, 1(12), 77-84.
2. Maxsudov, S., Tursunov, O., Baltabayeva, M., Akhmadaliyeva, M., & Rakhimova, K. (2023). Influence of the innovative environment on the activation of enterprises in free economic zones. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 65, p. 09004). EDP Sciences.
3. Badalovich, T. O. (2023). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA TRANSPORT INFRATUZILMASI RIVOJLANTIRISH VA TRANSPORT XIZMATLARINING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI



4. OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(5), 178-184.
5. Турсунов, О. (2023). РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЛИЗИНГА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(09), 286-289.
6. Умаров, О. Қ., & Турсунов, О. Б. (2023). Миллий боғ ва хиёбонлардан фойдаланишнинг иқтисодий самарадорлиги. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 389-393.
7. Umarov, O. Q., & Tursunov, O. B. (2023). Socio-Economic Effectiveness of State Leadership. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(3), 97-101.
8. Турсунов, О. (2023). МИНТАҚАВИЙ ТРАНСПОРТ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИ СТРАТЕГИК БОШҚАРУВ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Research Focus*, 2(2), 46-53.
9. Tursunov, O. (2023). TRANSPORT XIZMATLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(1 Part 2), 170-175.
10. Турсунов, О. (2022). ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИ ВА ИНФРАТУЗИЛМАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 4-9.
11. Турсунов, О. Б. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БОШҚАРИШ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ



12. ЙЎЛЛАРИ. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 41-45.
13. Турсунов, О. Б., & Турғунов, З. Х. (2022, December). ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИ ВА ТРАНСПОРТ ИНФРАТУЗИЛМАСИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ҲУДУДИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 1, No. 3, pp. 28-32).
14. Badalovich, T. O. (2022). Legal and institutional basis of development of transport services and transport infrastructure during the coronavirus pandemic. *Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review* Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(09), 55-61.
15. Турсунов, О. Б. (2022). Иқтисодий эркинлаштириш даврида транспорт хизматлари ва инфратузилмасининг ривожланиш тенденциялари ва ҳудудий хусусиятлари. *Ta'lim fidoyilari*, 8, 196-204.
16. Badalovich, T. O. (2022). Indicators representing the level of provision of transport services and infrastructure of the region. *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research* Issn: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(09), 123-127.
17. Турсунов, О. Б. (2022). ТРАНСПОРТ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИНГ МАЗМУНИ, ТАРКИБИ ВА МИНТАҚА ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 5(2), 190-196.
18. Турсунов, О. Б. (2022). Транспорт Инфратузилмасининг Назарий Асослари.